

XII. DEMOGRAFIK HOLAT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning 1-oktabr holatiga Toshkent shahri doimiy aholisi soni 2 934,1 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 71,7 ming kishiga yoki 2,5 % ga o'sdi.

Toshkent shahri tumanlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2022- yilning 1-oktabr holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Toshkent shahri	2934,1	2934,1	-	103,3	103,3	-
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	291,7	291,7	-	102,7	102,7	-
Bektemir	55,0	55,0	-	113,3	113,3	-
Yunusobod	364,8	364,8	-	102,2	102,2	-
Mirzo Ulug'bek	321,1	321,1	-	104,0	104,0	-
Mirobod	148,7	148,7	-	102,4	102,4	-
Shayxontohur	358,9	358,9	-	101,7	101,7	-
Olmazor	392,4	392,4	-	102,5	102,5	-
Sergeli	159,4	159,4	-	116,4	116,4	-
Yakkasaroy	126,2	126,2	-	102,3	102,3	-
Yashnobod	286,2	286,2	-	102,6	102,6	-
Yangihayot	159,0	159,0	-	101,2	101,2	-
Chilonzor	270,7	270,7	-	102,2	102,2	-

Toshkent shahri tumanlari kesimida 2022-yil 1-oktabr holatiga eng ko‘p aholi soni Olmazor tumanida 392,5 ming kishini (Toshkent shahri aholi sonidagi ulushi (13,4 %), Yunusobod tumanida 364,8 ming kishini (12,4 %), Shayxontohur tumanida 358,9 ming kishini (12,2 %) va Mirzo Ulug‘bek tumanida 321,1 ming kishini (11,0 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2022-yil 1-oktabr holatiga Toshkent shahri jami aholisiga nisbatan, foizda)




**Toshkent shahrida aholining tabiiy harakati
ko'rsatkichlari va koeffitsiyentlari**
(yanvar-sentabr)

Ko'rsatkichlar	Kishi		1000 aholiga nisbatan	
	2021-yil	2022-yil	2021-yil	2022-yil
Tug'ilganlar	46305	54822	22,0	25,3
O'lganlar	15059	12678	7,2	5,8
shu jumladan: 1 yoshgacha o'lgan bolalar	520	758	12,0	14,9
Nikox (birlik)	16841	16383	8,0	7,6
Ajrim (birlik)	4193	4433	2,0	2,0

Tug'ilish. 2022-yil yanvar-sentabr oylarida 54822 ta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, 2021- yilning mos davriga (46305 ta bola) nisbatan 8517 ta bolaga ko'paydi, tug'ilish koeffitsiyenti 25,3 promilleni tashkil etdi.

Aholining tug'ilish koeffitsiyenti
(yanvar-sentabr oylarida, 1000 aholiga, promille)



Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli darajada o'sishi Bektemir (23,0 promilledan 30,4 promillega), Olmazor (21,9 promilledan 26,3 promillega), Yunusobod (21,4 promilledan 25,0 promillega), Mirzo Ulug'bek (15,6 promilledan 20,2 promillega), Sergeli (22,4 promilledan 33,1 promillega), Yakkasaroy (15,9 promilledan 24,9 promillega) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha tug‘ilish koeffitsiyentining kamayishi Yangihayot (25,6 promilledan 24,2 promillega), tumanlarda kuzatildi.


O‘lim. 2022-yil yanvar-sentabr oylarida o‘lganlar soni 12,7 ming kishini tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan (15,1 ming kishi) ga kamaydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 5,8 promilleni tashkil etdi (2021-yil yanvar-sentabr 7,2 promille bo‘lgan).

O‘lim koeffitsiyenti yuqori darajasi 2021-yilga nisbatan Mirzo Ulug‘bek (7,8 promilledan 9,1 promillega) tumanida kuzatildi.

O‘lim koeffitsiyentining past darajasi Shayxontohur (3,8 promille), Yakkasaroy (4,4 promille) va Yangihayot (3,1 promille) tumanlarida qayd etildi.

Ro‘yxatga olingan jami o‘lganlarning 61,7 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 12,3 % o‘simtalardan, 4,1 % ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 6,6 % nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 4,3% baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,9 % yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 8,1 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida o‘lganlarning asosiy o‘lim sababi bo‘yicha taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan foizda)



Nikoh va ajrimlar. 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 16,4 mingta nikoh va 4,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,6 promilleni (2021-yil yanvar-sentabr oylarida 8,0 promille bo‘lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 2,0 promilleni (2021- yil yanvar-sentabr oylarida 2,0 promille bo‘lgan) tashkil etdi.

Nikoh tuzish va nikohdan ajralishlar koeffitsiyentlari

(2022-yil yanvar-sentabr, 1000 aholiga, promille)



Nikoh tuzish koeffitsiyentining sezilarli darajada kamayishi Olmazor (7,8 dan 6,6 promillega), Mirobod (7,5 dan 7,0 promillega), Shayxontohur (7,7 dan 7,0 promillega) tumanida kuzatildi.


Nikoh va ajrimlar soni

(yanvar-sentabr)

(birlikda)

	Nikohlar		Ajrimlar	
	2021- yil	2022 -yil	2021 -yil	2022- yil
Toshkent shahri	16841	16383	4193	4433
<i>tumanlar:</i>				
Uchtepa	2017	1729	383	427
Bektemir	347	379	85	99
Yunusobod	2257	2392	553	599
Mirzo Ulugʻbek	1489	1442	433	505
Mirobod	805	747	292	207
Shayxontohur	2013	1872	402	478
Olmazor	2227	1918	477	539
Sergeli	662	850	253	352
Yakkasaroy	800	1229	190	197
Yashnobod	1661	1424	483	465
Yangihayot	872	716	222	125
Chilonzor	1691	1685	420	440


Tumanlar kesimida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida nikohlar soni bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Nikoh. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, tumanlar bo'yicha eng yuqori nikoh tuzish darajasi Yunusobod tumanida 2392 ta, Olmazor tumanida 1918 ta, Shayxontohur tumanida 1872 ta, Uchtepa tumaniga 1729 ta to'g'ri keladi.

Tumanlar bo'yicha eng kam nikoh tuzish darajasi Yangihayot 716 ta, Mirobod 747 ta, Bektemir 379 ta va tumanlariga to'g'ri keladi.

Tumanlar kesimida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida nikohdan ajralishlar soni bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Ajrim. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, tumanlar bo'yicha eng yuqori nikohdan ajralishlar darajasi Yunusobod 599 ta, Olmazor 539 ta, Mirzo Ulug'bek 505 ta va Shayxontohur 478 ta tumanlariga to'g'ri keladi.

Tumanlar bo'yicha eng kam nikohdan ajralishlar darajasi Bektemir 99 ta, Yangihayot 125 ta va Yakkasaroy 197 ta tumanlariga to'g'ri keladi.

Aholi migratsiyasi

(yanvar-sentabr)

(kishi)


	Kelish		Ketish		Migratsiya saldosi	
	2021-y.	2022- y.	2021-y.	2022- y.	2021-y.	2022- y.
Toshkent shahri	89841	77719	58845	48146	30996	29573
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	6664	5775	5479	5369	1185	406
Bektemir	1276	3646	1519	867	-243	2779
Yunusobod	6966	5926	5714	5187	1252	739
Mirzo Ulug'bek	7319	9073	5024	4550	2295	4523
Mirobod	4386	4038	3093	3089	1293	949
Shayxontohur	4724	4167	4749	5103	-25	-936
Olmazor	5655	5289	4959	4773	696	516
Sergeli	8898	13712	13126	3827	-4228	9885
Yakkasaroy	3550	2893	2602	2625	948	268
Yashnobod	8794	8716	4642	4426	4152	4290
Yangihayot	23433	8044	1211	2407	22222	5637
Chilonzor	8176	6440	6727	5923	1449	517

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahar bo'yicha ko'chib kelganlar soni 77,7 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 48,1 ming kishini tashkil etdi.

Shunga muvofiq, migratsiya saldosiy plus 29,6 ming kishini tashkil etib, 2021-yilning mos davrida 31,0 ming kishini tashkil etgan.

Migratsiya saldosiyning yuqori darajasi Sergeli (plus 9,9), Yangihayot (plus 5,6) tumanlarida qayd etildi.

Aholining tabiiy va mexanik harakatlari to'g'risida ma'lumot
(2022- yil yanvar-sentabr, 1000 aholiga, promille)



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**TOSHKENT SHAHRINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI
2022-YIL YANVAR-SENTABR**

*Nashrga mas'ul:
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi
tel. (71) 203-88-07 (08)*

Buyurtma raqami №4

Tiraj ____ nusxa

**Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Toshkent sh., Amir Temur shoh ko'chasi, 11 uy**